



RAQAMLI TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKDA TA'LIM VA
METODIKANING O'RNI



<https://zenodo.org/records/18622461>

Shukurullayev Muhammadsodiq Shokirjon o'g'li

Oriental universiteti 3-kurs talabasi

muhammad.shukurullayev011@gmail.com

Ilmiy rahbar: Boboyeva Madina Xaydarovna

Tillar-2 kafedrası dotsent v.b., (PhD)

Annotatsiya: Raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalari hozirgi kundagi zamonaviy pedagogik jarayonda muhim o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida til o'qitish va tarjima metodikasi, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada raqamli vositalarning samaradorligi, talabalarning kompetensiyasi va tarjima qobiliyati bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: *raqamli tilshunoslik, tarjimashunoslik, masofaviy ta'lim, virtual platformalar, raqamli kompetensiya, pedagogik yondashuvlar.*

Annotation: Digital linguistics and translation studies occupy a significant place in the modern pedagogical process. This article analyzes contemporary pedagogical approaches to language teaching and translation methodology through the use of digital technologies, including distance learning platforms, virtual laboratories, and the development of digital competencies. In addition, the article presents the results of an experimental study examining the effectiveness of digital tools, students' competencies, and their translation skills.

Keywords: *digital linguistics, translation studies, distance education, virtual platforms, digital competence, pedagogical approaches.*

Аннотация: Цифровая лингвистика и переводоведение занимают важное место в современном педагогическом процессе. В данной статье анализируются современные педагогические подходы к обучению языкам и методике перевода с использованием цифровых технологий, дистанционных образовательных платформ, виртуальных лабораторий, а также формированию цифровых компетенций. Кроме того, в статье представлены результаты экспериментального исследования, направленного на оценку эффективности цифровых средств, уровня компетентности студентов и их переводческих навыков.

Ключевые слова: *цифровая лингвистика, переводоведение, дистанционное обучение, виртуальные платформы, цифровая компетентность, педагогические подходы.*

KIRISH. Raqamli tilshunoslik (Digital Linguistics) — bu kompyuter texnologiyalari yordamida tilni o'rganish va tahlil qilish sohasidir. U **sun'iy intellekt**, **natural language processing (NLP)** va **lingvistik korpuslarni** o'z ichiga oladi. Raqamli tilshunoslikning asosiy



vazifalari quyidagilardan iborat Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida til va tarjima o'qitish, masofaviy talim, virtual platformalar, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlar til va tarjima ta'lim yo'nalishlarida yangi imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Masofaviy ta'lim, interaktiv darslar va CAT tizimlari o'quv jarayonini sezilarli darajada samarali qo'llanilmoqda. Raqamli texnologiyalar til va tarjima o'qitish sohasida yangi pedagogik imkoniyatlar yaratmoqda. **Raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim va metodikalar orqali** masofaviy ta'lim, virtual platformalar, raqamli vositalar orqali til va tarjima ko'nikmalarini shakllantirish, va zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qo'llanilib kelinmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi globallashuv sharoitida til o'rganish va tarjima jarayonlari nafaqat lingvistik bilimlarni, balki raqamli muhitda ishlash kompetensiyalarini ham talab etmoqda. Shu bois raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim va metodika masalalari zamonaviy pedagogika va lingvistika fanlarining dolzarb tadqiqot obyektiga aylandi. CAT (Computer-Assisted Translation) tizimlari, mashinaviy tarjima (MT), interaktiv darslar va blended learning metodlari amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning raqamli kompetensiyalari va tarjima qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha eksperimental natijalar keltiriladi. Raqamli tarjimashunoslik tarjima jarayonlarini avtomatlashtirish va samarali qilishga qaratilgan. U quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Computer-Assisted Translation (CAT) tizimlari – tarjimonlarga qo'llanadigan interaktiv dasturlar hisoblanadi. Misol sifatida SDL Trados, MemoQ ni ko'rishimiz mumkin.

Qolaversa, mashinaviy tarjima (MT) – Google Translate, DeepL tizimlari tarjima qilish uchun samarali foydalaniladi. Talaba MT yordamida matn tarjimasini yaratadi, keyin CAT tizimi orqali uni tahrir qiladi. Bundan tashqari, Parallel tekstlar va korpuslar – tarjima mashqlarini osonlashtiradi. Masalan: "Harry Potter" kitobining ingliz va o'zbek tilidagi versiyalari.

CAT vs MT tizimlarining ishlash jarayoni. Raqamli tilshunoslik tushunchasi kompyuter texnologiyalari yordamida til birliklarini tahlil qilish, qayta ishlash va o'rganishni anglatadi. Bu yo'nalish sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing), lingvistik korpuslar va mashinaviy tarjima tizimlari bilan chambarchas bog'liqdir. Jurafsky va Martin (2020) ta'kidlaganidek, raqamli tilshunoslik tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki statistik va algoritmik asosda o'rganishga imkon beradi. Bu esa til o'qitish metodikasida yangi yondashuvlarni shakllantiradi. Tarjimashunoslik sohasida ham raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynay boshladi. An'anaviy tarjima jarayonlari bugungi kunda kompyuter yordamida tarjima qilish tizimlari (Computer-Assisted Translation) bilan boyitildi. SDL Trados, MemoQ, Wordfast kabi CAT vositalari tarjimon faoliyatini tezlashtirish, terminologik izchillikni saqlash va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi (Pym, 2018). Ushbu vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi tarjima o'qitish metodikasida yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Mashinaviy tarjima texnologiyalarining rivojlanishi esa tarjimashunoslikda alohida muhokama qilinadigan masalaga aylandi. Google Translate, DeepL, Microsoft Translator kabi tizimlar neyron tarmoqlar asosida ishlaydi va ko'plab tillar o'rtasida tezkor tarjima imkonini yaratadi. Gambier (2019) fikricha, mashinaviy tarjima inson tarjimonini to'liq almashtira olmaydi, biroq u samarali yordamchi vosita sifatida tarjima ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning mashinaviy tarjima



natijalarini tahlil qilishi va tahrirlashi ularning tanqidiy fikrlash va lingvistik tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masofaviy ta'lim va virtual platformalar raqamli til va tarjima ta'limining ajralmas qismiga aylandi. Moodle, Canvas, Google Classroom kabi platformalar o'quv jarayonini masofadan tashkil etish, topshiriqlarni boshqarish va baholash imkonini beradi. Godwin-Jones (2019) ta'kidlaganidek, virtual platformalar interaktivlikni oshiradi va talabning mustaqil ta'lim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, sinxron va asinxron darslarning uyg'unligi til o'rganishda samarali natijalarni ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar asosida til va tarjima o'qitish jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. DigComp Yevropa raqamli kompetensiyalar ramkasi talabalarda texnologiyadan foydalanish, ma'lumotlarni tahlil qilish, onlayn hamkorlik va raqamli mahsulotlar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Til va tarjima ta'limida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar raqamli til va tarjima ta'limining metodik asosini tashkil etadi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, student-markazlangan yondashuv va blended learning modellari raqamli muhitda o'qitish samaradorligini oshiradi. Flipped classroom modeli, ya'ni "teskari sinf" yondashuvi talabalarning darsdan oldin nazariy materiallarni mustaqil o'rganishi va dars jarayonida amaliy mashqlar bajarishini ta'minlaydi. Bu yondashuv til va tarjima o'qitishda interaktivlik va mustaqil fikrlashni kuchaytiradi [1]. Bugungi kunda jadallashib borayotgan globallashtirish va raqamli transformatsiya vaqtida tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlarini o'qitish an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolib bo'lmaydi, chunki raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim platformalari va virtual o'quv muhitlari til va tarjima ta'limining mazmuni, shakli hamda metodikasini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim jarayonini takomillashtirish faqat texnologiya joriy etish bilangina emas, balki metodik tafakkurni yangilash orqali amalga oshiriladi [2]. Avvalo, til va tarjima ta'limida raqamli muhitga moslashtirilgan o'quv kontentlarni yaratish zarur. Ko'plab hollarda raqamli platformalarda an'anaviy darsliklarning elektron nusxalari joylashtiriladi xolos. Bu esa raqamli ta'limning imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslikka olib keladi. Yangi yondashuv sifatida interaktiv matnlar, multimodal materiallar (audio, video, animatsiya), sun'iy intellekt yordamida moslashtirilgan mashqlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, talabning xatolariga qarab avtomatik ravishda yangi mashqlar taklif qiladigan adaptiv tizimlar til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tarjimashunoslik ta'limida CAT (Computer-Assisted Translation) va mashinaviy tarjima vositalarini tanqidiy tahlil asosida o'qitish muhim g'oyalardan biridir [3]. Talabalarni faqat dasturdan foydalanishga emas, balki mashinaviy tarjima natijalarini lingvistik, stilistik va pragmatik jihatdan tahlil qilishga o'rgatish lozim. Bu jarayonda talabalar tarjimon va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni anglab yetadilar. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, mashinaviy tarjimani tahrirlash (post-editing) bo'yicha maxsus mashg'ulotlar talabalarning professional tarjimon sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masofaviy ta'lim doirasida virtual tarjima laboratoriyalari tashkil etish zamonaviy va istiqbolli g'oyalardan biridir. Bunday laboratoriyalarda talabalar real buyurtmalar asosida jamoaviy tarjima loyihalarini amalga oshirishi, terminologik bazalar yaratishi va tarjima jarayonini onlayn muhokama qilishi mumkin. Bu nafaqat tarjima ko'nikmalarini, balki raqamli hamkorlik, mas'uliyat va loyiha boshqaruvi kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Tilshunoslikda esa



raqamli korpuslar bilan ishlashni erta bosqichdan boshlab o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Talabalar real til materiallari asosida so'z chastotasi, kollokatsiyalar, sintaktik tuzilmalarni tahlil qilish orqali tilni "tirik tizim" sifatida anglay boshlaydi. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtiradi. Raqamli korpuslar yordamida tayyorlangan darslar talabalarda ilmiy tadqiqotga qiziqishni ham kuchaytiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, kompetensiyaga yo'naltirilgan va student-markazlangan yondashuvni raqamli muhitda tizimli joriy etish zarur. O'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajarishi lozim. Bu jarayonda e-portfolio, onlayn refleksiya kundaliklari va raqamli baholash vositalari samarali natija beradi. Talabani rivojlanish dinamikasi raqamli tarzda kuzatilishi va baholanishi ta'lim sifatini oshiradi. Yana bir muhim taklif — raqamli pedagogika bo'yicha o'qituvchilarni qayta tayyorlash va doimiy malaka oshirish tizimini kuchaytirishdir. Eng zamonaviy texnologiyalar ham, agar o'qituvchi ularni metodik jihatdan to'g'ri qo'llay olmasa, kutilgan natijani bermaydi. Shu bois til va tarjima o'qituvchilari uchun sun'iy intellekt, raqamli didaktika, onlayn baholash va virtual dars dizayni bo'yicha maxsus treninglar tashkil etilishi zarur. Raqamli texnologiyalar til va tarjima o'qitish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. Biroq bu jarayon faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanib qolish kerak emas, balki chuqur metodik va pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashishi lozim. Raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim va metodikani rivojlantirish bugungi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Milliy tilshunoslik maktabi vakillari ta'kidlaganidek, til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkur va madaniyatning muhim ko'rinishidir (Mahmudov, 2019). Shu sababli til va tarjima ta'limini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish jarayoni milliy lingvistik an'analarga tayangan holda olib borilishi lozim. Tarjimashunoslik ta'limida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash tarjima jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalar esa ushbu mezonlarni tahlil qilish va takomillashtirishda samarali yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Masofaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli muhitda ta'limni tashkil etish pedagogdan yangi yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim modeli til va tarjima sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy va raqamli ko'nikmalar ham muhim hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida til va tarjima o'qitish metodikasini rivojlantirish milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan, milliy an'analarga tayangan va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un holda olib borilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim va metodikani rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Raqamli tilshunoslik va tarjimashunoslikda ta'lim metodikasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar til va tarjima o'qitish jarayonini



yanada interaktiv va samarali qilsa-da, ularni chuqur pedagogik va metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu jarayon milliy lingvistik an'analar va ilmiy asoslar bilan bog'liq holda olib borilgandagina kutilgan natijani beradi. Zamonaviy texnologiyalar tarjimashunoslikda nazariya va amaliyotni birlashtirish imkonini kengaytiradi. Masofaviy ta'lim va raqamli muhit talabalar mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagogning roli bilim beruvchidan ta'lim jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchiga aylanishini talab etadi. Umuman olganda, raqamli asosda til va tarjima ta'limini rivojlantirish milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2020). *Speech and Language Processing*. Pearson.
2. Xodjayev, B. *Masofaviy ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: O'qituvchi, 2020. (Masofaviy va raqamli ta'lim bo'yicha milliy manba)
3. Jo'rayev, R. *Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari*. Toshkent: Fan, 2016.
4. Usmonov, O. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Sodiqova, M. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan, 2017.